

№7 (3) 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Үрманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайниневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li</i>	
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR	9-15
<i>Zoqidov Қобилжон Тоиржонович</i>	
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ	16-20
<i>Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich</i>	
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIY TA'MINOT SIYOSATI	21-26
<i>Хайназаров Баҳромжон Баҳтиёрович</i>	
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЖОРӢЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ)	27-32
<i>Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРФИБОТИДА ТУТГАН ЎРНИ	33-41
<i>Bobodustov Bobur Mirzaboyevich</i>	
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI	42-47
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i>	
XX АСРНИНГ 30-50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА	48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Казаков Олим Сабирович</i>	
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙўНАЛИШЛАРИ	56-60
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i>	
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	61-67
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	68-76
<i>Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадирович</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО ТУРИЗМА	77-82
<i>Xolmurotov Fozil Saribayevich</i>	
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH	83-91
<i>Худайназарова Диляром Хайруллаевна</i>	
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	92-100

Ғойипназаров Санжар Баходирович
СУНЬЙИ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРӢӢ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕҲНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР 101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI 111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фарруҳ Абдураҳманович
АҲБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭҲТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙГУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ 120-126

Tojiboev Sarvar Pўлатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ 127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI 133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI 138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVİY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKALARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI 151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI 161-167

Мухамедова Феруза Баҳодир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА 168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimjanovich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI 175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARNING QO'LLANILISHI 181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI 186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Жавлиев Нурали Баходирович</i> МАЪМУРИЙ-ХУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ	191-195
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i> БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҶСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ХУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ)	196-204
<i>Usmanov Alisher Tolmasovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	205-213
<i>Авезова Элеонора Паракатовна</i> РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	214-218
<i>Муқумов Бобур Мелибод угли</i> ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	219-224
<i>Туракулова Назира Абдишукуровна</i> СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ: ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН	225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Хўжамкелдиев Faфур Султон ўғли</i> СПОРТ МАШФУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ	233-237
<i>Aziz Xasanovich Rajabiy</i> BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	238-242
<i>Malikova Sevar Samatovna</i> BO'LAJAK XOR RAHBARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	243-246
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ	247-251
<i>Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich</i> AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES	252-257
<i>Асадуллаева Наргиза</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ	258-265
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi</i> BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA КОМПЕТЕНСИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРISHNING PEDAGOGIK MODELI	266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Numonjonov Shohzodbek Dilshodjon uғli</i> OLIY TEHNIKA TA'LLIMIDA MEХNAT MUХOFAZASI VA TEHNIKA XAVFSIZLIGI KOИDALARINI UҚITISHDA ELEKTRON METODIK ASOSLARNING ILMIIY AҲAMIAHYI	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSİYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

Xolmurotov Fozil Saribayevich
 Urganch davlat Universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD.
fozil.xolmuratov@urdu.uz

MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyatida turli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish subyektlari, jumladan, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning aholi farovonligini oshirishdagi o'rni ko'rib chiqildi. Tadqiqotda ushbu subyektlarning bandlik va aholi jon boshiga real daromadga ta'sirini baholash uchun regressiya tahsilii qo'llanildi. Tahlillar aholi bandligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi, bandlik, real daromad, model.

Xolmurotov Fozil Saribaevich
 Department of "Economics" of Urganch State University
 associate professor, Ph.D.

ASSESSMENT OF THE ROLE OF SUBJECTS PRODUCING AGRICULTURAL PRODUCTS IN INCREASING THE WELFARE OF THE REGIONAL POPULATION

Abstract. This article discusses the role of various subjects of agricultural production in the Khorezm region, including farms, peasant farms and organizations engaged in agricultural activities, in improving the welfare of the population. The study used regression analysis to estimate the impact of these organizations on employment and real per capita income. The analysis reveals the importance of farms in providing employment and agricultural production.

Keywords: Agricultural production, farms, agriculture, employment, real income, model.

Холмуротов Фозил Сарибаевич
 Кафедра «Экономика»
 Ургенчского государственного университета

ОЦЕНКА РОЛИ СУБЪЕКТОВ, ПРОИЗВОДЯЩИХ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННУЮ ПРОДУКЦИЮ, В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ РЕГИОНА

Аннотация. В данной статье рассмотрена роль различных субъектов сельскохозяйственного производства Хорезмской области, в том числе фермерских хозяйств, крестьянских хозяйств и организаций, занимающихся сельскохозяйственной деятельностью, в повышении благосостояния населения. В исследовании использовался регрессионный анализ для оценки влияния этих организаций на занятость и реальный доход на душу населения. Анализ раскрывает значение фермерских хозяйств в обеспечении занятости населения и производстве сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова. Сельскохозяйственное производство, фермы, сельское хозяйство, занятость, реальный доход, модель.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N12>

Kirish. Aholi farovonligini oshirib borish, bandligini ta'minlash, ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Qishloq xo'jaligi har doim har bir mintaqasi iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholi turmush darajasini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tashqari, ushbu sektor mintaqadagi aholining umumiy turmush farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Aholining farovonligi ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy farovonlik, oziq-ovqat xavfsizligi, ijtimoiy rivojlanish va ekologik barqarorlik kabi turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan fermerlar, fermerlar, baliqchilar va qishloq xo'jaligi qiymat zanjirining boshqa asosiy ishtirokchilari ushbu o'lchovlarning har biriga aniq, ammo o'zaro bog'liq holda hissa qo'shadilar. Iqtisodiy jihatdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari daromad va ish bilan ta'minlash orqali mintaqaviy o'sishni ta'minlaydi. Ularning faoliyati bozor aloqalarini yuzaga keltirmoqda, qishloq tadbirkorligini rag'batlantirib, hudud iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda qishloq xo'jaligini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi rolini oshirish, mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 30 – maqsadi qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish qaratilgan bo'lib, mazkur maqsadga erishish uchun tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lagini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, tuproq unumdarligini oshirish va muhofaza qilish, aholi tomonidan tomorqlardan samarali foydalanishi uchun sharoitlar yaratish[1] kabi qator vazifalar belgilangan. Bu borada qishloq xo'jaligi rivojlanishida omillardan foydalanish samaradorligini baholash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda barqarorlikni ta'minlash, sohalar va subyektlar rolini baholash asosida ilmiy – amaliy ahamiyatga ega bo'lgan takliflarni ishlab chiqishda statistik va ekonometrik usullardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonlari[2] hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining aholi farovonligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishining asosiy usullaridan biri bu oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdir[3]. Aholi sonining ko'payishi va urbanizatsiyaning kuchayishi bilan oziq-ovqatga talab ortib

bormoqda[4]. Xorazm viloyatidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari barqaror dehqonchilik amaliyotini tafbiq etib, ekinlar hosilini maksimal darajada oshirish uchun texnologik yutuqlardan foydalangan holda qiyinchilikka erishdi. Ularning fidoyiligi va tajribasi mahalliy aholini to'yimli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan izchil ta'minlash, tashqi manbalarga qaramlikni kamaytirish va mintaqaning o'zini o'zi ta'minlash darajasini oshirish imkonini berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati qishloq xo'jaligidagi yutuqlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining mahalliy aholi turmush farovonligini oshirishga qo'shgan salmoqli hissasi bilan azaldan e'tirof etilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi:

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muhim jihat bo'lib, Xorazm viloyatida aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining roli o'rganilgan. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, viloyat qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari ekinlar hosildorligini oshirish, sug'orish usullarini yaxshilash va zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim yutuqlarga erishdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bu sa'y-harakatlar natijasida yanada ishonchli va xilma-xil oziq-ovqat ta'minoti, mahalliy aholining ovqatlanishi va farovonligini yaxshilashga hissa qo'shgan[3].

Bandlikni shakllantirish va qishloqni rivojlantirish:

Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, ayniqsa, qishloq joylarda ish o'rinalarini yaratishda ham muhim rol o'ynadi. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining qishloq taraqqiyoti uchun katalizator sifatidagi rolini ta'kidlashgan. Tadqiqotchilar qishloq xo'jaligi, xususan, ekinchilik, chorvachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kabi sohalarning kengayishi natijasida yangi ish o'rinalari yaratilayotgani, qishloqdan shaharga migratsiya kamaygan, aholi turmushi yaxshilangani ta'kidlangan[4]. Tadqiqotda ushbu bandlik imkoniyatlarining ijobiy ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri, jumladan, uy xo'jaliklari daromadlarining oshishi, ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyatlari yaxshilanishi va qashshoqlik darajasining pasayishi ta'kidlandi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari aholi turmush farovonligini oshirishga katta hissa qo'shgan[5]. Ularning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligini ta'minlash, barqaror dehqonchilik amaliyotini joriy etish, davlat ko'magidan bahramand bo'lish borasidagi sa'y-harakatlari aholining oziq-ovqat, turmush sharoiti, atrof-muhitni muhofaza qilish va qishloq obodonchiligidida ijobiy samaralar bermoqda[6]. Ushbu maqolaning keyingi bo'limlarida Xorazm viloyatidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari duch kelayotgan ajoyib yutuqlar va davom etayotgan muammolarni chuqurroq tushunish uchun aniq misollar va misollar ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish subyektlarining aholi turmush farovonligini oshirishdagi rolini baholash uchun miqdoriy tadqiqot metodologiyasi qo'llaniladi. Tadqiqotda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ishtirok etadigan uchta asosiy subyektga qaratilgan: fermer xo'jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanadigan tashkilotlar. Qishloq xo'jaligi mahsuloti (AGR), bandlik (EM) va aholi jon boshiga real daromad (REALINCPC) kabi qiziqishning asosiy o'zgaruvchilari aniqlanadi. Bu o'zgaruvchilar qishloq

xo'jaligi ishlab chiqarishining aholi farovonligiga ta'sirini baholashdagi ahamiyatidan kelib chiqib tanlanadi. Tanlangan o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tekshirish uchun ko'p omilli regressiya tahlili o'tkaziladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ishtirok etuvchi har bir subyekt (fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va tashkilotlar) uchun alohida regressiya modellari ishlab chiqildi. Modellar avtokorrelyatsiya muammolarini hisobga olish uchun kechiktirilgan o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi.

Xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligini rivojlanish tendensiyalari, noaniq iqlim va iqtisodiy sharoitlarda barqarorlikni ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni proqnozlashda turli statistik va ekonometrik modellardan foydalanish masalalari ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Barqarorlik jarayoni joriy ishlab chiqarishni maksimal darajaga ko'tarish va qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi[7]. Hozirgi iqlim sharoitida hudud iqtisodiyotida diversifikatsiyaning yuqori darajasi barqarorlikni oshiradi. Yuqori joriy kapital o'sish sur'atlari, masalan, Joriy ko'rsatkichning 2%, shuningdek, suv mavjudligidan kamroq ta'sirlanadigan va iqlim o'zgarishlariga chidamli turning yanada barqaror rivojlanishiga olib keladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, siyosatchilar va resurs menejerlari iqtisodiyot rivojlanayotgan paytda uni diversifikatsiya qilish chora-tadbirlariga e'tibor qaratishlari kerak, balki jamiyatning tizimning oldindan aytib bo'lmaydigan zarbalariga moslashish imkoniyatlarini ham hisobga olishlari kerak[8].

Tahlil va natijalar. Viloyatda qishloq xo'jaligi muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi. Shuning uchun, qishloq xo'jaligida samaradorlikni ta'minlash o'z navbatida qator iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga yordam beradi[9]. Jahon amaliyotiga ko'ra qishloq xo'jaligini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda ikkita yondashuv mavjud, yani yirik va kichik fermer xo'jaliklarini shakllantirish. Ko'plab davlatlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishda kichik fermer xo'jaliklari muhim yo'nalish sifatida o'z tasdig'ini topgan. Faqat AQShda yirik fermer xo'jaliklarini tashkil qilish odatga aylangan[10]. Chunki, ushbu mamlakatda ko'proq texnik ekinlar yetishtiriladi va ishchi kuchidan kam foydalaniladi[11].

Tadqiqotlarimizdan ma'lumki ushbu ikkala subyektda yetishtiriladigan mahsulot turlari ham turlicha, jumladan fermer xo'jaliklarida ko'proq paxta, bug'doy kabi ekinlar yetishtiriladigan bo'lsa, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlashning manbai bo'lgan meva – sabzavot mahsulotlari ko'proq yetishtiriladi. Uchinchi subyekt ham mavjud, ya'ni qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar. Ammo, ularning qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushi ahamiyatlari darajada emas.

Bundan tashqari yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishga kam miqdordagi erga egalik qilishiga qaramasdan dehqon xo'jaliklarining ta'sirini ancha yuqori ekanligi tadqiqotlar natijasida aniqlandi. Jami subyektlarda etishtirilgan mahsulotning bir foizga oshishi yalpi qishloq xo'jalik mahsulotini 0,99 foizga oshirishi aniqlangan bo'lsa, uning 0,70 foizining dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi fikrlarimiz tasdig'i bo'lib xizmat qilmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishda subyektlar ta'sirining turlicha ekanligini hisobga olgan holda subyektlar tomonidan etishtirilgan mahsulot hajmidagi o'zgarishning aholi bandligi va real daromadlariga ta'sirini qarab chiqildi[12]. Dastlab qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim subyekt bo'lgan fermer xo'jaligi tomonidan etishtirilgan mahsulot hajmini o'zgarishini bandlik darajasiga ta'sirini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan model natijalarini qarab chiqamiz.

$$\ln(\text{EM}) = 4,13 + 0,36 * \ln(\text{AGR})$$

Ishlab chiqilgan modelning adekvatligini asoslash uchun keltirilgan mezonlar natijalariga ko'ra barcha koeffisientlar adekvat, biroq determinasiya koeffisienti etarli darajada katta emas, bundan tashqari Durbin-Uatson statistikasi avtokorrelasiya muammosi mavjudligini asoslamoqda. Shu sababda fermer xo'jaliklarining bandlikka ta'sirini baholash uchun ikkinchi model ishlab chiqildi va avtokorrelasiya muammosi bartaraf etilgani holda determinasiya koeffisientini ham oshishiga erishildi.

$$\ln(\text{EM})_t = 1,13 + 0,12 * \ln(\text{AGR}) + 0,71 * \ln(\text{EM})_{t-1}$$

Bu model keltirilgan mezonlar va ularning natijalari ishlab chiqilgan modelning adekvatligini va undan zaruriy xulosalar chiqarishda foydalanish mumkinligini asoslaydi. Natijalarga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, fermer xo'jaliklari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorining bandlar soni bo'yicha elastiklik koeffisienti 0,12 ga teng va bu miqdori juda kichik ekanligini kuzatish mumkin[13].

Ayni tahlilni qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda qolgan ikkita subyekt uchun ham amalga oshirildi va regression tahlil natijalarining muhim mezonlari keltirib o'tildi (1-jadval).

1-jadval

Aholi bandligini ta'minlashga qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiruvchi subyektlar ta'sirini baholash natijalari

Nº						E
1	33* ln(AGRPF)					
2	Ln(EM)=6,25+0,08* ln(AGRAC)	b ₀ =60,05 b ₁ =2,76	0,41	0,41	0,08	
3	Ln(EM) _t =1,40+0,009* ln(AGRAC)+ 0,78*ln(EM) _{t-1}	b ₀ =2,05 b ₁ =0,71 b ₂ =7,22	0,91	-1,94	-	

Manba: muallif ishlanmasi.

Keltirilgan barcha mezonlar ushbu modellardan foydalanish va xulosalar chiqarish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda. Bevosita dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar tomonidan yaratilgan mahsulot miqdoridagi o'zgarishlarning bandlar soniga ta'sirini baholash natijalarini qarab chiqamiz. Olingan natijalarga ko'ra bandlar sonini dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda yaratilgan mahsulot hajmi bo'yicha elastiklik koeffisienti 0,33 ga teng ekanligi aniqlandi. Mazkur ko'rsatkich aniqlangan elastiklik koeffisientlar ichida eng yuqori qiymatga ega hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko'ra qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yaratilgan mahsulot miqdori bilan bandlar soni orasida bog'liqlik mavjud emasligi aniqlandi. Ya'ni, birinchi model natijalariga ko'ra avtokorrelasiya mavjud bo'lib, keyingi model bo'yicha aniqlangan koeffisientlarga ko'ra bandlar sonini ta'sirini ifodalovchi koeffisient adekvat emasligi aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtiruvchilar ichida dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining bandlikni ta'minlashdagi ahamiyati ancha katta ekanligi aniqlandi. Tahlil natijalariga ko'ra aholi real daromadlarini oshirishda qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulot miqdorining roli ahamiyatli darajada yuqori ekanligini o'z tasdig'ini topdi. Buni hisobga olgan holda subyektlarning ushbu natijalarini ta'minlashdagi rolini baholab o'tamiz. Ya'ni har bir subyektning aholi real

daromadlariga ta'sirini alohida alohida qarab chiqamiz. Fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoridagi o'zgarishning aholi jon boshiga real daromadlarga ta'sirini baholash natijalariga ko'ra hech qanday bog'liqlik mavjud emasligi aniqlandi.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar tomonidan yaratilgan mahsulot miqdoridagi o'zgarishning aholi jon boshiga real daromadlarga ta'sirini qarab chiqish uchun ishlab chiqilgan birinchi model quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi[14].

$$\ln(\text{REALINCPC}) = -4,07 + 1,64 * \ln(\text{AGRPF})$$

Ushbu model asosida xulosalar chiqarishdan oldin uning ishonchliligi va adekvatligini asoslash uchun zarur bo'lgan mezonlarni qarab chiqamiz. Ushbu mezonlar va ularning natijalari 2-jadvalda keltirib o'tilgan.

2-jadval

Fermer xo'jaliklari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdori o'zgarishi bilan aholi bandligi orasidagi bog'liqliknini baholash bo'yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari

Model 21: OLS, using observations 2010-2022 ($T = 13$)

Dependent variable: l_REALINCPC

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
const	-4.07389	1.07219	-3.800	0.0029	***
l_AGRPF	1.63874	0.142895	11.47	<0.0001	***
Mean dependent var	8.218326		S.D. dependent var		0.331940
Sum squared resid	0.102053		S.E. of regression		0.096320
R-squared	0.922817		Adjusted R-squared		0.915800
F(1, 11)	131.5179		P-value(F)		1.85e-07
Log-likelihood	13.06071		Akaike criterion		-22.12141
Schwarz criterion	-20.99151		Hannan-Quinn		-22.35366
rho	0.880009		Durbin-Watson		0.669821

Manba: muallif ishlanmasi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, barcha koeffisientlar z-statistika bo'yicha adekvat bo'lib ulardan foydalanish mumkinligini asoslamoqda. Determinasiya koeffisienti ham 0,92 ga teng bo'lib model ishonchliligini ko'rsatmoqda faqat Durbin-Uatson ko'rtsakichining belgilangan oraliqda tashqari ekanligi va avtokorrelyasiya muammosini mavjudligini ko'rsatayotganligi sababli ushbu muammoni bartaraf etgan holda ikkinchi model ishlab chiqildi.

$$\ln(\text{REALINCPC})_t = -1,55 * \ln(\text{AGRPF})_t + 2.67 * \ln(\text{AGRPF})_{t-1}$$

Avtokorrelyasiya muammosini bartaraf etish uchun erksiz o'zgaruvchining oldingi davrdagi qiymati (lag)larni modelga erkli o'zgaruvchi sifatida qabul qilganimizda natijalar avtokorrelyasiyaning bartaraf bo'lmaganligini ko'rsatdi. Yuqorida keltirilgani kabi erkli o'zgaruvchining bir oldingi davrida yaratilgan mahsulot miqdorini joriy davrdagi aholi daromadlarini oshirishi aniqlandi. Umumiy hisobda dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan mahsulot qiymatidagi o'zgarishlarning ijobiy natijasi mavjud ekanligini ta'kidlash mumkin. Ya'ni dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan mahsulot hajmini yillar kesimida o'rtacha bir foizga o'sib borishi aholi real daromadlarini 1,11 ($2.67 - 1.55 = 1,11$) foizga o'sishiga to'g'ri keladi. Ushbu keltirilgan natijani asoslash uchun amalga oshirilgan tahlil natijalariga tayangan holda quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Hududda qishloq xo'jalik mahsulotlarini

yetshtirishda aynan dehqon xo'jaliklarida muammo mavjud. Ya'ni, bozordagi talab bo'yicha aniq ma'lumotning mavjud emasligi, boshqa tomonidan dehqon xo'jaliklari orasida ma'lumot almashishning talab darajasini yo'lga qo'yilmaganligi yoki umuman mavjud emasligi ularni ekinlarni rejalashtirish bilan bog'liq xatolarni qilishga majbur qilmoqda.

Shu sababli bozorda barqarorlikni saqlash bilan bog'liq muammolar tez-tez uchrab turadi. Ya'ni, ba'zi yillarda ayrim turdag'i mahsulotlar tanqisligi kuzatilgani holda narxni oshib ketishi va shu mahsulotni yetshtirgan subyektlarning yuqori daromadga ega bo'lishi kuzatilsa, keyingi yilda barcha xo'jaliklar tomonidan mazkur mahsulotni yetshtirilishi narxni pasayish va daromad darajasini tushib ketishiga ayrim holatlarda zarar ko'rib qolishiga sabab bo'lmoqda. Buning yana bir sabablaridan biri qishloq xo'jaligida yetshtirilgan meva-sabzavotni yig'ib olish, tashish, saqlash, qadoqlash va qayta ishlash bilan bog'liq muammolarning mavjudligidir. Chunki, hosilni yig'ib olish davrida dehqon xo'jaliklari tomonidan yetshtirilgan barcha mahsulotni ayni davrda bozorga olib chiqilishi narxni keskin tushib ketishiga sabab bo'lmoqda va dehqon xo'jaliklarini daromadlarini ham pasayishiga sabab bo'lmoqda. Fikrimizcha, keltirib o'tilgan muammolarni bartaraf etilishi qishloq xo'jaligida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hamda aholi real daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetshtirishdagi uchunchi subyekt bu qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hisoblanadi. Ularning yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishdagi ulushi ancha past bo'lib faqat keyingi yillarda biroz oshganligini kuzatish mumkin. Ularning aholi jon boshiga real daromdlarga ta'sirini baholash bo'yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalariga ko'ra quyidagi modelga ega bo'linadi.

$$\ln(\text{REALINCPC})_t = 2.67 * \ln(\text{AGRAC})_{t-2}$$

Xuddi yuqoridagi kabi ushbu holatga ham avtokorrelyatsiya muammosi mavjudligi aniqlandi. Buni hisobga olgan holda amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yetshtirilgan mahsulot miqdorining ikki yil oldingi qiymatining joriy davrdagi aholi jon boshiga real daromadlar hajmiga musbat ta'siri mavjud ekanligi aniqlandi. Mazkur modelning adekvatligini asoslash uchun zaruriy barcha omillar tekshirilgan. Ularning natijalariga ko'ra model va uning koeffisientlari keltirib o'tilgan mezonlar bo'yicha adekvat bo'lib, ulardan foydalangan holda zaruriy xulosalar chiqarish mumkinligini asoslamoqda.

Qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan yetshtirilgan mahsulot hajmining joriy davrdagi oshishi aholi daromadlari hajmiga ikki yildan keyin o'z ta'sirini ko'rsatishi aniqlandi. Ya'ni aholi jon boshiga real daromadlarning qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan ikkil yil oldingi davrda yaratilgan mahsulot miqdori bo'yicha elastiklik koeffisienti 2,36 ga teng ekanligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar. Umumiy hisobda qishloq xo'jalik subyektlari tomonidan yetshtirilayotgan mahsulot miqdoridagi o'zgarishning aholi jon boshiga real daromadlar hajmiga ta'siri mavjud ekanligi aniqlandi. Faqat fermer xo'jaliklari tomonidan yetshtirilgan mahsulot miqdoridagi o'zgarishning aholi jon boshiga real daromadlar hajmiga ta'sirini baholash natijalari ishlab chiqilgan model va aniqlangan koeffisientlarda foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Keltirib o'tilganlarga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki mavjud sharoitda aholi bandligini ta'minlash va real daromadlarini oshirishda dehqon xo'jaliklari muhim subyektlardan biri sifatida qaralmoqda. Fikrimizcha fermer xo'jaliklari tomonidan yetshtirilayotgan mahsulotlar turini diversifikasiya qilish, etishtirilgan mahsulotni

yig'ib olish, tashish, qadoqlash, saqlash va qayta ishlash tizimlarini tashkil qilish orqali sohada yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish mumkin. Shu bilan birga aholi bandligi va daromadlarini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish subyektlarining aholi turmush farovonligini oshirishdagi o'rni yuzasidan olib borilgan tahlillar muhim fikrlarni ochib berdi. Tadqiqotda asosiy e'tibor fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga qaratilib, ularning aholi bandligi va aholi jon boshiga real daromadlariga ta'siri baholandi. Regressiya modellari iqtisodiy o'sish va farovonlikni oshirishda ushbu subyektlarning ahamiyatini ta'kidlab, qimmatli xulosalar berdi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish subyektlari, xususan, dehqon xo'jaliklarining aholi turmush farovonligini oshirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Kichik fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirish, bozor axborotidagi bo'shliqlarni bartaraf etish, infratuzilma va qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan sanoatga sarmoya kiritish orqali mintaqaga qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, bandlikni oshirish va aholining real daromadlarini oshirishga erishishi mumkin. Bu sa'y-harakatlar mintaqaning umumiy iqtisodiy o'sishi va farovonligiga xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 -2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni
3. L. Praburaj. "Role of Agriculture in the Economic Development of a Country." Shanlax International Journal of Commerce, vol. 6, no. 3, 2018, pp. 1–5.
4. Kapur, Radhika. (2020). Significance of Agriculture and Food Production.
5. Clark, Gregory. (2002). The Agricultural Revolution and the Industrial Revolution: England, 1500-1912
6. Kapur, Radhika. (2020). Significance of Agriculture and Food Production
7. Suresh, A.; Krishnan, P.; Jha, G.K.; Reddy, A.A. Agricultural Sustainability and Its Trends in India: A Macro-Level Index-Based Empirical Evaluation. Sustainability 2022, 14,
8. M. Roobavannan, J. Kandasamy, S. Pande, S. Vigneswaran, M. Sivapalan. Sustainability of agricultural basin development under uncertain future climate and economic conditions: A socio-hydrological analysis. Ecological Economics. Volume 174. 2020. 106665. ISSN 0921-8009. [https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2020.106665.;](https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2020.106665.)
9. Xolmurotov, F. (2023). MINTAQADA QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVChI OMILLAR TASNIFI. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(2), 386-391. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a62
10. Kholmurotov Fozil Saribaevich. Інтеграція освіти, науки та бізнесу в сучасному середовищі: літні диспути: тези доп. III Міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 11-12 серпня 2021 р.-Дніпро, Україна, 2021.-477 с.

11. A.G. Abdullayev, R.O. Ismailov, & R.Z. Boymuradov (2023). Oziq-Ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiirishning hududiy Jihatlari. Science And Innovation, 2 (Special Issue 6), 429-433. Doi: 10.5281/Zenodo.8002508
12. Холмуротов, Ф. (2023). МИНТАҚАДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ. Economics and education, 24(2), 386-391.
13. Холмуротов, Ф. С. (2021). Разработка прогнозных значений ключевых показателей сельского хозяйства Хорезмской области. Экономика и предпринимательство, (6), 577-581.
14. Saribaevich, K. F. ISSUES OF HAVING OPTIMAL RATIO OF SUBJECTS IN ENSURING SUSTAINABLE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. Інтеграція освіти, науки та бізнесу в сучасному середовищі: літні диспути: тези доп. III Міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 11-12 серпня 2021 р.-Дніпро, Україна, 2021.-477 с., 113.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).